



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL — MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 19-may, № 100 (9271)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



SHAHARLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH BORASIDA QATOR TASHABBUSLAR ILGARI SURILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 17-18-may kunlari amaliy tashrif bilan Boku shahrida bo'ldi.



Prezident Shavkat Mirziyoyev 18-may kuni BMning Aholi punktlari bo'yicha dasturi shafeligida Boku shahri mezbonlik qilgan Butunjahon urbanizatsiya forumining 13-sessiyasi ochilish marosimida ishtirok etdi.

Poytaxtning Kongress-markazida davlatimiz rahbarini Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev

hamda BMning Aholi punktlari bo'yicha dasturi ijrochi direktori Anaklaudiya Rossbax qutqadilar.

Ishtirokchilarning birgalikda suratga tushish marosimi bo'lib o'tdi.

Bu galgi forumning mavzusi — "Barcha uchun uy-joy: xavfsiz va barqaror shaharlar hamda hamjamiyatlar".

Forum kun tartibidan shaharlarni barqaror rivojlantirish, aholini zamonaviy va arzon uy-joy bilan ta'minlash, shahar muhiti sifatini oshirish, iqlim barqarorligini mustahkamlash, ijtimoiy va transport infratuzilmasini rivojlantirish hamda uy-joyni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o'rin oldi.

Tadbirida Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev, Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov, Serbiya Prezidenti Aleksandr Vuchich, Bolgariya Prezidenti Iliyana Yotova, Gruzniya Bosh vaziri Irakli Kobaxidze, Qozog'iston Bosh vaziri Oljas Bektenov, BMning Aholi punktlari bo'yicha dasturi ijrochi direktori Anaklaudiya Rossbax hamda qator boshqa xorijiy davlatlar va hukumatlar rahbarlari, xalqaro tashkilotlar hamda moliyaviy institutlar vakillari qatnashdi.

Forumda shaharlarni barqaror rivojlantirish, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash, shahar muhiti sifatini oshirish, iqlim barqarorligini mustahkamlash hamda uy-joy qurilishini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Prezidenti o'z nutqida forumning "Barcha uchun uy-joy: xavfsiz va barqaror shaharlar hamda hamjamiyatlar" mavzusi jadal urbanizatsiya sharoitida bugun har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ta'kidladi. Tahlillarga ko'ra, XXI asr o'rtalariga borib sayyoramiz aholisining qariyb 70 foizi shaharlarda istiqomat qiladi.

Davlatimiz rahbari urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi ijtimoiy muammolarni ham kuchaytirib borayotganini qayd etdi. Bugun dunyoda qariyb 3 milliard insonlar birlamchi yashash sharoitlaridan mahrum, ularning bir milliarddan ziyodi norasmiy turarjoylar va xarobalarda kun kechirmoqda, 300 milliondan ortiq odamlar esa umuman boshpanaga ega emas. Iqlim o'zgarishlari, tahlikali xalqaro vaziyat va iqtisodiy inqirozlar global migratsiyani yangi to'lqinlarini paydo qilib, shaharlar yuklamasini qo'shimcha ravishda oshirmoqda.

Oddiy qilib aytganda, urbanizatsiya jarayonlari global barqarorlik va xavfsizlikka to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi ta'sir omilga aylanoqda, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz shaharlarni barqaror rivojlantirish Yangi O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega masalalardan biri ekanini ta'kidladi. Yaqin 15 yil ichida mamlakatimiz aholisi 38 milliondan 50 million nafarga, urbanizatsiya darajasi esa

51 foizdan 65 foizga yetishi kutilmoqda.

Shu munosabat bilan mamlakatimizda shahar infratuzilmasini rivojlantirish va uy-joy qurilishini keng ko'lmda rivojlantirish dasturi amalga oshirilmoqda. Oxirgi o'n yilda qurilayotgan uy-joylarning yillik soni 10 barobar oshib, 2025-yilda 238 mingta xonadonga yetdi, 2030-yilda esa bu ko'rsatkich yana 1,5 barobar oshadi. Aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash dasturlariga har yili byudjetdan qariyb 2 milliard dollar mablag' ajratilmoqda.

Norasmiy turarjoylar muammosini hal qilish uchun 2024-yilda alohida qonun qabul qilinib, 100 mingga yaqin uylarga hujjat rasmiylashtirib berildi. Bundan tashqari, mamlakatimizda eskirgan uy-joylarni yangilash bo'yicha renovatsiya dasturi amalga oshirilib, yangilangan xonadonlar ulushini 15 foizdan 60 foizga yetkazish nazarda tutilgan.

Ushbu jarayonlarni samarali boshqarish maqsadida Urbanizatsiya milliy qo'mitasi tashkil etildi.

Shaharlarning ekologik barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Yashil makon", "Toza havо" dasturlari doirasida shaharlarda yashillik darajasini 2030-yilgacha 30 foizga yetkazish vazifasi qo'yilgan.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING BUTUNJAHON URBANIZATSIYA FORUMI 13-SESSIASINING YETAKCHILAR SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli Ilhom Haydarovich! Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari! Xonimlar va janoblar! Barchangizni Butunjahon urbanizatsiya forumining 13-sessiyasida, global taraqqiyotning eng dolzarb masalalari muhokama qilinayotgan nufuzli muloqot maydonida ko'rib turganimdan behad mamnunman.

Bugungi anjuman "Kaspiy durdonasi" bo'lmish qo'zal Bokuda yuqori darajada tashkil etilgan va bizga ko'rsatilayotgan samimiy mehmondostlik uchun Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Haydarovich Aliyevga chuqur minnatdorlik bildiraman.

Butun Ozarbayjon diyorida, ayniqsa, Qorabog' zaminida ulkan bunyodkorlik ishlari jadal olib borilmoqda. Ozod qilingan hududlarda qisqa muddatlarda butun boshli shaharlar qayta tiklanib, yangi turarjoy majmualari, zamonaviy infratuzilma obyektlari barpo etilyapti.

Fursatdan foydalanib, ana shunday oliyjanob ishlarga munosib hissa qo'shishga O'zbekiston doim tayyor ekanini ta'kidlamoqchiman.

Hurmatli forum ishtirokchilari! Kun tartibiga qo'yilgan "Barcha uchun uy-joy: xavfsiz va barqaror shaharlar hamda hamjamiyatlar" masalasi bugun har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tahlillarga ko'ra, XXI asr o'rtalariga borib sayyoramiz aholisining qariyb 70 foizi shaharlarda istiqomat qiladi.

Ayni paytda urbanizatsiya jarayoni o'zi bilan birga qator ijtimoiy muammolarni ham kuchaytirib bormoqda.

Bugun dunyoda qariyb 3 milliard inson birlamchi yashash sharoitlaridan mahrum. Ularning bir milliarddan ziyodi norasmiy turarjoylar va xarobalarda kun kechirmoqda, 300 milliondan ortiq odam esa umuman boshpanaga ega emas. Iqlim o'zgarishlari, tahlikali xalqaro vaziyat va iqtisodiy inqirozlar global migratsiyani yangi to'lqinlarini paydo qilib, davlatlar va shaharlar o'rtasida aholining qayta taqsimlanishiga olib kelmoqda. Oddiy qilib aytganda, urbanizatsiya jarayonlari global barqarorlik va xavfsizlikka to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omilga aylanoqda.

Bularning barchasi hammamizdan qat'iy va chekilib bo'lmaydigan choralar ko'rishni talab qilmoqda.

Aziz do'stlar! Shaharlarni barqaror rivojlantirish masalasi Yangi O'zbekiston uchun ham strategik ahamiyatga ega. Yaqin 15 yil ichida mamlakatimiz aholisi 38 milliondan

50 million nafarga, urbanizatsiya darajasi esa 51 foizdan 65 foizga yetishi kutilmoqda. Biz buni hududlarimizni mutanosib rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun noyob imkoniyat deb hisoblaymiz.

Shu maqsadda O'zbekistonda oxirgi o'n yilda qurilayotgan uy-joylarning yillik soni 10 barobar oshib, 2025-yilda 238 mingta xonadonga yetdi, 2030-yilda ushbu raqamni yana 1,5 barobar oshiramiz; aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash dasturlariga har yili byudjetdan qariyb 2 milliard dollar mablag' ajratilmoqda; norasmiy turarjoylar muammosini hal qilish uchun 2024-yilda alohida qonun qabul qilinib, 100 mingga yaqin uylarga hujjat rasmiylashtirib berildi; eskirgan uy-joylarni yangilash maqsadida renovatsiya hisobiga quriladigan xonadonlar ulushini 15 foizdan 60 foizga yetkazish reja qilib olindi.

Ushbu jarayonlarni samarali boshqarish maqsadida Urbanizatsiya milliy qo'mitasi tashkil etildi.

Bundan tashqari, "Yashil makon", "Toza havо" dasturlari doirasida shaharlarda yashillik darajasini 2030-yilgacha 30 foizga yetkazish marrasini olganmiz.

Shaharlarni obodonlashtirish va aholi turmush tarzini yaxshilashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi bo'yicha an'anaviy tuzilma — mahalla institutiga keng tayanamiz.

Xonimlar va janoblar! Ikki million aholiga mo'ljallangan "Yangi Toshkent" megaloyihasi biz amalga oshirayotgan urbanizatsiya strategiyasining yaqqol namunasi. Ushbu loyihada zamonaviy shaharsozlikning eng ilg'or yechimlari — "yashil", "aqlli", "xavfsiz", "15 daqiqali" shahar tamoyillari to'liq hisobga olingan.

Birinchidan, urbanizatsiya darajasining o'sishi shaharlardagi o'zini o'zi boshqarishning an'anaviy tuzilmalarini yanada oshirmoqda. Shu munosabat bilan Butunjahon urbanizatsiya forumining 15-sessiyasini 2030-yilda Yangi Toshkent shahrida o'tkazishni va uning bosh mavzusini "Shaharlarning barqaror rivojlanishida mahalla institutining o'rni" deb nomlashni taklif etaman.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari! Bugungi tadbir o'zaro manfaatli va istiqbolli masalalar yuzasidan birgalikda yechimlar topishga, yangi tashabbuslarga yo'l ochish va soha rivojiga salmoqli hissa qo'shishiga ishonaman.

So'zimizning yakunida forum ishiga ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

hamda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa yetakchi moliya institutlariga o'z tashakkurimni izhor etaman.

Hurmatli forum ishtirokchilari! Bugun muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan bir qator taklif va tashabbuslarni jalb etishdagi yangicha imkoniyatlardan barcha davlatlar teng foydalana olishi zarur.

Shu sababli hamkor davlatlarni shaharlarni rivojlantirishda "mutanosib urbanizatsiya" tamoyilini keng joriy etishga chaqiramiz.

Ikkinchidan, shahar boshqaruvida sun'iy intellekt va raqamli transformatsiya imkoniyatlaridan barcha davlatlar teng foydalana olishi zarur.

Ushbu sohada texnologiya, standartlar va tajribalarni tizimli almashishga qaratilgan xalqaro "Aqlli va xavfsiz shaharlar alyansi"ni tuzishni taklif qilaman.

Uchinchidan, yoshlar va aholining ehtiyojmand qatlamlarini sifatli hamda arzon uy-joylar bilan ta'minlash juda muhim. Shu maqsadda kelgusi yilda Samarqand shahrida uy-joy qurilishiga moliya va investitsiyalarni jalb etishdagi yangicha yondashuvlar yuzasidan xalqaro forum o'tkazishga tayyormiz.

Video konferensaloqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning "YouTube" tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib borildi.

O'n beshinchi yalpi majlisning birinchi ish kunini senatorlar "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga elektron tijorat sohasini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonunni muhokama qilishdan boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n beshinchi yalpi majlisi to'g'risida AXBOROT

2026-yilning 18-may kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n beshinchi yalpi majlisi o'z ishini boshladi.



Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, mahalliy Kengashlarning deputatlari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Video konferensaloqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning "YouTube" tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib borildi.

O'n beshinchi yalpi majlisning birinchi ish kunini senatorlar "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga elektron tijorat sohasini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonunni muhokama qilishdan boshladi.

Mazkur qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga hamda "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuniga elektron tijorat sohasida to'lovlarini, transchegaraviy elektron tijoratni amalga oshirishning,

raqamli mahsulotlar eksporti va importining o'ziga xos xususiyatlarini belgilashni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Shuningdek, elektron tijorat operatorlarining majburiyatlari doirasida iste'molchi oldida sotuvchi javobgar bo'ladigan holatlar yoki sotuvchi tomonidan iste'molchining qonuniy talablarini qondirish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, elektron tijorat operatorining iste'molchi oldida subsidiar javobgarlik me'yori belgilanmoqda.

So'zga chiqqanlar ta'kidlaganidek, buning natijasida iste'molchining xavfsiz onlayn savdo xizmatlaridan keng foydalanishi ta'minlanadi. Bundan tashqari, qonun nafaqat elektron savdoni tartibga solish, balki elektron savdo bozorida shaffoflikni oshirish, xalqaro standartlarga mos huquqiy baza yaratishga xizmat qiladi.

Senatorlarning fikricha, ushbu chora-tadbirlarning tatbiq etilishi mahalliy va xorijiy sotuvchilar o'rtasida adolatli raqobat sharoitini ta'minlashga, transchegaraviy elektron tijorat shiddat bilan rivojlanayotgan davrda soliq tushumlari yo'qolishining oldini olishga hamda mahalliy elektron savdo platformalarini soliq agentlari sifatida jalb etish orqali soliq tushumlarini ta'minlash jarayonlarini yengillashtirishga

qaratilgan.

Muhokama yakunida senatorlar qonunni ma'qulladi.

Shuningdek, yalpi majlisda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkilotining Sanitariya va fitosanitariya choralarini qo'llash bo'yicha Bitimiga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida o'simliklar karantini va himoyasi sohasidagi milliy qonunchilikni Tashkilotning bitimlarida nazarda tutilgan qoidalar va me'yorga muvofiqlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Qonun bilan "O'simliklar karantini to'g'risida"gi Qonunda keltirilgan asosiy tushunchalar O'simliklar karantini va himoyasi bo'yicha xalqaro konvensiya doirasida tasdiqlangan fitosanitariya atamalarini lug'atiga muvofiqlashtirilmoqda.

Shuningdek, o'simliklar karantini sohasidagi mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining vakolatlari aniq belgilab qo'yilmoqda.

Hamkorlik

10 YILLIK DO'STLIK YO'LI — QARDOSHLIKDAN ITTIFOQCHILIKKACHA

O'tmish — bugunning poydevori

Ikki guhar o'rni bo'ldi bir durj, Ikki qiyos avji bo'ldi bir burj, Bir sog'ar aro tushub iki mul, Bir g'uncha aro butub iki gul.

Hazrat Navoiyning ushbu satrlari o'zbek va ozar xalqlari birodarligi tarixi va bugungi kunini ifodalash uchun juda mos, nazariyada. Zero, yagona lidiz, azaliy do'stlik, umumiy ma'naviy merosga ega

ellarimiz bugun ham umumiy taraqqiyot sari ishonch bilan odimlamoqda.

Tarix zarvarlari bu ikki xalqning tili, ana va urf-odatlari bir-biriga nechog'li yaqinligidan guvohlik beradi. Masalan, XI — XIV asrlar orolig'ida hukmronlik qilgan Saljuqiylar saltanatida hozirgi Ozarbayjon va O'zbekistonning salmoqli hududi bir davlat tarkibiga kirgan.

Temuriylar davrida bir-biriga yanada yaqinlashgan bu ikki xalq orasida quda-andachilik munosabatlari yo'lga qo'yilgani, ayrim temuriy shahzodalarga ozarbayjonlik

mudarrislar ustozlik qilgani ham ma'lum.

O'zbek generali Sobir Rahimov Bokuda tahsil olgan, Samad Vurg'un va Abdulla Oripov har ikki elning "o'z shoiri"ga, Maqsud Shayxzoda esa "o'zbek farzandi"ga aylangan. Bunday misollar sanoqiz...

Athol, O'zbekiston — Ozarbayjon munosabatlari bugun misli ko'rilmagan yuqori cho'qqiga ko'tarilgani muloqot tasodif emas. Ilo, oxirgi 10 yilni o'tzar — o'zbek do'stligi kitobining toj shahifalari, desak, hecham mubolag'a bo'lmas...



SHAHARLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH BORASIDA QATOR TASHABBUSLAR ILGARI SURILDI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Davlatimiz rahbari hududlarni obodonlashtirish va aholi turmush sifatini oshirishda mahalla instituti muhim o'rni tutishini ham alohida ta'kidladi.

"Yangi Toshkent" megaloyahasiga alohida to'xtalib o'tildi. Unda "yashil", "aqli", "xavfsiz", "15 daqiqali" shahar tamoyillari to'liq hisobga olingan. Birinchi bosqichning o'zida qiymati 25 milliard dollardan ortiq investitsiya loyihalari amalga oshirish boshlangan.

Eng muhimi, bu kabi loyihalar nafaqat poxtaxtda, balki "Yangi O'zbekiston" mavzulari nomi ostida mamlakatimizning barcha hududlarida amalga oshirilmoqda. Hozirgacha 61 ta ana shunday massiv bunyod etildi, 2030-yilga borib esa ularning soni 100 taga yetadi, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

O'zbekiston Prezidenti o'z nutqida bir qator xalqaro tashabbuslarni ilgari surdi.

Xususan, davlatimiz rahbari kichik va o'rta shaharlarni uyg'un rivojlantirish

maqsadida "mutanosib urbanizatsiya" tamoyillarini keng joriy etishga chaqirdi.

Xalqaro "Aqli va xavfsiz shaharlar alyansi"ni tashkil qilish tashabbusi bildirildi. Tuzilma shahar boshqaruvi raqamli transformatsiya qilish sohasida texnologiyalar, standartlar va eng yaxshi tajribalar bilan almashish uchun platforma vazifasini bajaradi.

Yoshlar va aholining ehtiyojmand qatlamlarini sifatli hamda arzon uy-joylar bilan ta'minlash maqsadida 2027-yilda Samarqand shahrida uy-joy qurilishiga moliya va investitsiyalarni jalb etishdagi yangicha yondashuvlar yuzasidan xalqaro forum o'tkazish taklif qilindi.

Ekologik barqaror shaharlarni rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida BMT-Habitatning "Yashil shahar" xalqaro mukofotini ta'sis etish ham yana bir muhim tashabbus bo'ldi.

Shuningdek, O'zbekiston Prezidenti Butunjahon urbanizatsiya forumining 15-sessiyasini 2030-yilda Yangi Toshkent shahrida o'tkazishni va uning bosh

mavzusini "Shaharlarning barqaror rivojlanishida mahalla institutining o'rni" deb nomlashni taklif qildi.

Sammit doirasida boshqa xorijiy delegatsiyalar rahbarlari ham so'zga chiqdi.

Boku shahriga amaliy tashrif doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev bilan uchrashuv o'tkazdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Ozarbayjon yetakchisini Butunjahon urbanizatsiya forumining muvaffaqiyatli tashkil etilgani bilan samimiy tabrikлади.

Avvalgi oliy darajadagi muloqotlar chog'ida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O'zbekiston - Ozarbayjon strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish hamda mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Tovar ayirboshlashning ijobiy sur'ati qayd etildi. Yil boshidan buyon o'zaro savdo hajmi 40 foizdan ziyodga oshdi.

Qurilish, tog'-kon sanoati, energetika, qishloq xo'jaligi, turizm va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmogda.

Mazkur loyihalarni jadallashtirish hamda birgalikdagi investitsiyalarni, shu jumladan, Qo'shma investitsiya kompaniyasi mablag'larini jalb etgan holda yanada kengaytirish muhimligi ta'kidlandi.

Yetakchilar transportga oid tashabbuslarni amalga oshirish va xalqaro transport yo'laklarini rivojlantirish bo'yicha hamkorlikni kengaytirish masalalarini ham muhokama qildilar.

Bo'lajak oliy darajadagi tadbirlar rejasini ko'rib chiqildi.

Butunjahon urbanizatsiya forumining 13-sessiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Ko'p qirrali O'zbekiston - Serbiya munosabatlarini oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida

yanada rivojlantirishning dolzarb jihatlarini muhokama qilindi.

Asosiy e'tibor tovar ayirboshlash hajmlarini oshirish, mashinasozlik, qayta ishlash, kimyo va elektrotexnika sanoati, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi hamda turizm kabi sohalarda kooperatsiya dasturini ishlab chiqish masalalariga qaratildi.

Gumanitar hamkorlikni yanada rivojlantirish, xususan, rektorlarning birinchi forumi hamda Kino va madaniyat kunlarini o'zaro o'tkazish muhimligi ta'kidlandi.

Yetakchilar xalqaro kun tartibidagi masalalar yuzasidan ham fikr almashib, bo'lajak oliy darajadagi tadbirlar rejasini muhokama qildilar.

Butunjahon urbanizatsiya forumi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh kotibining o'rinbosari, BMTning Aholi punktlari bo'yicha dasturi (BMT-Habitat) ijrochi direktori Anakladiya Rossbax bilan ham uchrashuv o'tkazdi.

BMT-Habitat bilan shaharlarni barqaror rivojlantirish, shahar infratuzilmasini takomillashtirish hamda shaharsozlik sohasida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish bo'yicha hamkorlikni kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

O'tgan yili Samarqand iqlim forumi doirasida bo'lib o'tgan uchrashuvda erishilgan kelishuvlar ijrosi ham ko'rib chiqildi. Hamkorlikni yanada kengaytirish, jumladan, qo'shma "Yo'l xaritasi"ni tayyorlash, sohaga oid loyihalarni ilgari surish hamda ekspertlar o'rtasidagi aloqlarni kengaytirish muhimligi ta'kidlandi.

O'zbekiston Prezidenti tomonidan Butunjahon urbanizatsiya forumida ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjon Respublikasiga amaliy tashrif yakunlandi.

O'ZA.

10 YILLIK DO'STLIK YO'LI - QARDOSHLIKDAN ITTIFOQCHILIKKACHA

Yuksak manzillar sari...

2016-yil O'zbekiston tashqi siyosatida buriilish nuqtasi bo'ldi - Toshkent tashqi siyosiy faollikni keskin oshirdi. Markaziy Osiyo, Kavkaz va turkiy dunyo bilan munosabatlarni qayta tiklash va chuqurlashtirish esa mamlakat yangi tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ana shu jarayonda Ozarbayjon bilan munosabatlar alohida ahamiyat kasb etib, ikki tomonlama diplomatik aloqalar mullaqo yangi bosqichga ko'tarildi.

Avvallari O'zbekiston - Ozarbayjon munosabati sovuq yoki ziddiyatli bo'lmasa-da, o'zaro aloqalar yuqori darajadagi strategik sur'at yetishmasdi. Ikki davlat o'rtasida tarix, madaniyat va til yaqinligi mavjud o'laroq, siyosiy muloqot cheklangan, iqtisodiy ayirboshlash past darajada edi. Ayniqsa, transport-logistika, energetika va mintaqaviy kooperatsiya kabi sohalarda ulkan salohiyat amaliy natijaga aylangan. Aynan shunday murakkab bir vaziyatda Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Ilhom Aliyevning siyosiy irodasi va qat'iy intilishlari, ta'bir joiz bo'lsa, "muzlagan imkoniyatlar"ni harakatga keltirdi.

Toshkent va Boku yaqinlashuviga bir necha omil turki berdi. Birinchidan, har ikki davlat tashqi siyosatda ko'p qirrali yondashuvni tanladi. Ikkinchidan, turkiy davlatlar o'rtasida integratsiya jarayoni kuchaydi. Uchinchidan, Rossiya - G'arb qarama-qarshiligi kuchayib borayotgan sharoitida Markaziy Osiyo va Kavkazni bog'lovchi yangi tranzit yo'laklariga ehtiyoj ortdi. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston va Ozarbayjon geografik jihatdan bir-birini to'ldiruvchi davlatlarga aylandi.

2017-2018-yillardan boshlab ikki davlat rahbarlari o'rtasida muntazam siyosiy muloqot shakllandi. Oliy darajadagi tashriflar faqat ramziy diplomatik tadbirlar bo'lib qolmadi, balki aniq iqtisodiy va infratuzilma loyihalari bilan to'ldirildi. Natijada munosabatlar deklarativ formatdan amaliy strategik sheriklik bosqichiga ko'chdi.

Muhim jihat shundaki, O'zbekiston Ozarbayjoni nafaqat Kavkaz davlati, balki Markaziy Osiyoni jahon bozorlariga bog'lovchi geostatistik ko'priki sifatida ko'ra boshladi. Ayniqsa, Kaspiy orqali Yevropa yo'nalishiga chiqish masalasi Toshkent uchun ustuvor ahamiyat kasb etdi. Bu esa Bokuning transport-logistika markazi sifatidagi rolini kuchaytirdi.

So'nggi yillarda "O'rta yo'lak" deb ataluvchi Trans-Kaspiy xalqaro transport yo'lagi ikki davlat munosabatlarining muhim geoiqtisodiy ustuniga aylandi. Xitoy - Markaziy Osiyo - Kavkaz - Yevropa yo'nalishi orqali tovar aylanmasini oshirish rejasini Toshkent va Boku manfaatlarini bir nuqtada birlashtirdi. Rossiya orqali o'tuvchi an'anaviy yo'nalishlarga muqobil transport tarmog'iga ehtiyoj kuchaygani sari O'zbekiston uchun Ozarbayjonning ahamiyati yanada ortdi.

Iqtisodiy raqamlar ham munosabatdagi yangi dinamikani ko'rsatadi. Tahlillarga ko'ra, 2016-yildan keyin ikki davlat o'rtasidagi tovar aylanmasi bir necha barobar ortdi. Ayniqsa, keyingi yillarda bu raqam barqaror o'sish xususiyatini oldi.

Eng muhimi, munosabatlar faqat iqtisodiy pragmatizm bilan cheklanib qolmadi. O'zbekiston va Ozarbayjon rahbariyati munosabatlarni "qardoshlik", "ittifoqchilik", "tashqi birlilik" kabi siyosiy-sivilizatsion tushunchalar bilan boyitdi. Bu esa hamkorlikka mafkuraviy va

ma'naviy tayanch berdi. Ayniqsa, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi yaqinlashuv ikki mamlakat o'rtasidagi siyosiy ishonchni sezilarli darajada kuchaytirdi.

2024-yil munosabatlar sifat jihatdan yangi bosqichga chiqdi: ikki davlat o'rtasida Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Mazkur hujjat aloqalar eng yuqori siyosiy darajaga chiqqanini anglatadi. Shu tariqa Toshkent va Boku munosabatlari strategik sheriklikdan uzoq muddatli geosiyosiy muvofiqlikka asoslangan ittifoqchilik modeliga ko'tarildi.

Xullas, O'zbekiston - Ozarbayjon munosabatlari bosqichma-bosqich geoiqtisodiy manfaat, transport xavfsizligi, turkiy integratsiya va mintaqaviy siyosiy yaqinlikka tayangan sheriklikka aylandi. Bu yaqinlashuv tasodifiy emas, balki yangi Yevroosiyo geosiyosiy muhitida shakllangan pragmatik va uzoq muddatli manfaatlar in'ikosidir.

Iqtisodiy diplomatiya, transport yo'laklari va energetik manfaatlar uyg'unligi

Hozirgi munosabatlarning eng muhim xususiyatlaridan biri - hamkorlik siyosiy bayonotlardan iqtisodiy pragmatizmga o'ta boshlagani. Avvalgi yillarda asosiy urg'u qardoshlik va madaniy yaqinlikka berilgan, keyingi bosqichda transport, logistika, sanoat kooperatsiyasi va investitsiya asosiy yo'nalishlarga aylandi. Bu ikki davlat aloqalarini hissiy diplomatiyadan amaliy geoiqtisodiy sheriklik darajasiga olib chiqdi.

O'zbekiston uchun Ozarbayjonning asosiy strategik ahamiyati Kaspiy mintaqasidagi tranzit imkoniyatida namoyon bo'ladi. Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan O'zbekiston tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiya qilishga kirishgan. Ayniqsa, Rossiya orqali o'tuvchi an'anaviy transport tarmoqlariga geosiyosiy bosim kuchaygan sharoitda Toshkent yangi yo'laklar izlashni tezlashtirdi. Ana shu nuqtada Boku Markaziy Osiyoni Yevropa va Qora dengiz bozorlari bilan bog'lovchi muhim tugunaga aylandi.

Boku - Tbilisi - Kars temir yo'li, Alyat xalqaro dengiz porti va Trans-Kaspiy transport infratuzilmasi O'zbekiston tashqi iqtisodiy strategiyasida tobora muhim o'rinni egallay boshladi. Xususan, mamlakat yuklarini Kaspiy orqali Ozarbayjonga, keyin Turkiya va Yevropa bozorlariga yetkazish rejasini so'nggi yillarda ancha faollashtirdi. Bu jarayon faqat iqtisodiy emas, balki siyosiy mustaqillik nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Zero, transport yo'nalishlari ko'payishi tashqi bosimga qaramlilikni kamaytirdi.

2022-yildan keyin Rossiya - Ukraina urushi tufayli global logistika tizimi jiddiy o'zgarishga uchradi. Jumladan, "O'rta yo'lak" loyihasi xalqaro siyosatning markaziy mavzularidan biriga aylandi. Xitoy va Markaziy Osiyodan Kaspiy dengizi orqali Ozarbayjon, Gruziya va Turkiyaga chiquvchi mazkur yo'nalish bir vaqtning o'zida ham iqtisodiy, ham geosiyosiy ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston aynan shu yo'lakda faol ishtirokchisi bo'lishga intildi.

Boku esa bu jarayonda faqat tranzit hudud emas, balki mintaqaviy logistika arxitekturasining markaziy ishtirokchisi sifatida harakat qiladi.

Ozarbayjon hukumati so'nggi yillarda portlar, temir yo'llar va boxjona infratuzilmasini modernizatsiya qilishga

katta mablag' yo'naltirdi. Bu esa O'zbekiston uchun ham yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratmoqda.

Transport sohasidagi yaqinlashuv sanoat kooperatsiyasi bilan ham mustahkamlandi. Xususan, avtomobil sanoati ikki davlat munosabatlari yangi yo'nalishiga aylandi. O'zbekistonning "UZAuto Motors" kompaniyasi va Ozarbayjondagi hamkorlar ishtirokida Hojigabul sanoat zonasida avtomobil ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirildi. Bu oddiy yig'uv korxonasi emas, balki texnologiya, kapital va bozorni birlashtirishga qaratilgan sanoat integratsiyasi namunasi sifatida baholandi.

Qishloq xo'jaligi, to'qimachilik va farmatsevtika sohalarida ham kooperatsiya loyihalari kengaydi. Muhim jihat shundaki, ikki davlat munosabatlari "xaridor - sotuvchi" modeli emas, balki qo'shma ishlab chiqarish mexanizmi shakllana boshladi. Bunday yondashuv munosabatlarni izchil va barqaror qiladigan omil hisoblanadi.

Investitsiya sohasida ham yangi bosqich kuzatildi. O'zbekiston va Ozarbayjon qo'shma investitsiya fondi tashkil etish bo'yicha kelishuvga erishdi. Ushbu jamg'arma orqali energetika, infratuzilma, qurilish va sanoat loyihalarini moliyalashtirish nazarda tutilgan. Ayni mexanizm ikki davlat munosabatlarini deklarativ siyosiy yaqinlikdan institutsional iqtisodiy sheriklikka olib o'tadi.

Ma'lumki, energetika sohasi o'zaro munosabatlarimizning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bu borada ikki davlat manfaatlarini bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega. Ozarbayjonning energetika infratuzilmasi va eksport tajribasi O'zbekiston uchun muhim model sifatida ko'riladi. Ya'ni Kaspiy orqali energiya tashish yo'laklari kelajakda Markaziy Osiyo resurslarini o'zaro munosabatlarimizning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bu borada ikki davlat manfaatlarini bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega. Ozarbayjonning energetika infratuzilmasi va eksport tajribasi O'zbekiston uchun muhim model sifatida ko'riladi. Ya'ni Kaspiy orqali energiya tashish yo'laklari kelajakda Markaziy Osiyo resurslarini o'zaro munosabatlarimizning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

So'nggi yillarda "yashil energetika" sohasidagi hamkorlik faol muhokama qilinmoqda. Ozarbayjon Qora dengiz orqali Yevropa bozorlariga "yashil" energiya eksport qilish strategiyasini ilgari surgan. O'zbekiston esa qayta tiklanuvchi energiya sohasida yirik islohotlarni boshlagan. Shu sababli kelajakda mazkur sohadagi hamkorlik yanada chuqurlashtirish ehtimoli yuqori.

Yana bir muhim jihat - O'zbekiston va Ozarbayjon tashqi iqtisodiy siyosatda bir-biri uchun muqobil emas, balki yaqin sherik davlatlarga aylanmoqda. Markaziy Osiyo va Kavkaz o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya aynan shu ikki davlat faolligi natijasida tezlashmoqda. Bu tendensiya Yevroosiyo yangi iqtisodiy makon shakllanayotganini ko'rsatadi.

Vaholanki, O'zbekiston - Ozarbayjon munosabatlarining asosiy mazmuni siyosiy bayonotlarda emas, balki transport yo'laklari, sanoat kooperatsiyasi, investitsiya mexanizmi va geoiqtisodiy manfaatlar uyg'unligida namoyon. Davlatlarimiz hamkorligi endilikda yangi mintaqaviy iqtisodiy arxitektura qurilishining muhim zanjiri sifatida e'tirof etilmogda.

Turkiy dunyo, xavfsizlik arxitekturasi va O'zbekiston - Ozarbayjon ittifoqchiliginin kelajak formulasi

O'zbekiston - Ozarbayjon munosabatlarini faqat ikki tomonlama diplomatik aloqalar sifatida baholash yetarli emas. So'nggi yillarda bu

yaqinlashuv kengroq geosiyosiy jarayon - turkiy davlatlar integratsiyasi, Yevroosiyo yodagi kuchlar muvozanati o'zgarishi va yangi mintaqaviy xavfsizlik manzarasi shakllanishi bilan uzviy bog'landi. Shu nuqtayi nazardan, Toshkent va Boku endi shunchaki hamkorlar emas, balki yangi siyosiy makon qurilishining muhim bog'lanlaridir.

2019-yilda O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotiga qo'shilishi munosabatlarida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu qaror tashqi siyosatdagi ramziy qadam emas, balki Toshkentning o'z geosiyosiy identifikatsiyasini qayta belgilay boshlaganini anglatdi. O'zbekiston bir vaqtlar turkiy integratsiyaga ehtiyotkor yondashgan bo'lsa, Prezident Shavkat Mirziyoyev davrida mazkur platformani tashqi siyosatning muhim vositasi sifatida qabul qildi.

Ayni jarayonda Prezident Ilhom Aliyev rahbarligidagi Ozarbayjon muhim rol o'ynadi. Zero, Boku Turkiya bilan bir qatorda turkiy integratsiyaning eng faol siyosiy markazlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, Boku turkiy davlatlar o'rtasida transport, iqtisodiyot, ta'lim va xavfsizlik sohalarida chuqur kooperatsiyani ilgari surib kelmoqda. O'zbekiston esa demografik, iqtisodiy va geografik salohiyati bilan tizimning markaziy ishtirokchisiga aylanishi mumkin. Shu bois ikki davlat manfaatlarini bir nuqtada kesishdi.

Darvoqe, turkiy integratsiya masalasi faqat madaniy yaqinlik bilan cheklanmay, iqtisodiyot va xavfsizlik manfaatlarini bilan to'ldirilmoqda. Markaziy Osiyo va Kavkazni birlashtiruvchi transport yo'laklari, energetika tarmoqlari va raqamli infratuzilmalar aynan turkiy davlatlar hamkorligi orqali shakllantirilmoqda. Natijada O'zbekiston - Ozarbayjon munosabatlari institutsional jihatdan yanada mustahkamlanayapti.

Ayniqsa, 2020-yil Qorabog' qaytarilishi bilan Ozarbayjon mintaqada yangi siyosiy vaznga ega bo'ldi. O'zbekiston esa Ozarbayjonning hududiy yaxlitligini qo'lab-quvvatlash orqali Boku bilan siyosiy ishonchni yanada mustahkamladi.

Fuzuliy shahrida O'zbekiston tomonidan qurilgan maktab ramziy jihatdan juda muhim loyiha. Toshkent shu tariqa Qorabog'ni tiklashda ishtirok etishi orqali Ozarbayjon bilan uzoq muddatli strategik sheriklikka tayyorligini namoyon qildi. Boshqacha aytganda, faqat siyosiy bayonotlar bilan cheklanmasdan, jarayonda amaliy sa'y-harakati bilan ishtirok etdi.

O'zbekiston - Ozarbayjon munosabatlarida xavfsizlik omili ham kuchayib bormoqda. Bu harbiy ittifoqchilik darajasida emas, balki mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan ahamiyat kasb etmoqda. Afg'onistondagi vaziyat, transmilliy tahdidlar, kibernetika va logistika xavfsizligi masalalari ikki davlat manfaatlarini yaqinlashtirmoqda.

Xususan, transport yo'laklari faollashtirishni xavfsizlikni ta'minlash masalasi ham dolzarblashmoqda. Kaspiy - Kavkaz - Markaziy Osiyo yo'nalishi faqat iqtisodiy emas, balki strategik kommunikatsiya tarmog'iga aylanyapti. Bu esa Toshkent va Boku o'rtasida xavfsizlik sohasidagi muvofiqlashuv ehtiyojini kuchaytirdi.

Tashqi siyosatda o'xshash yondashuvlarga ega davlatlarimiz yirik kuchlar bilan muvozanatli munosabat o'rnatishga harakat qiladi. O'zbekiston ham, Ozarbayjon ham hech bir geosiyosiy markazga qaram bo'lishni istamaydi. Ayni jihat mamlakatlarimizni ko'p vektorli diplomatiya tarafdori

sifatida birlashtiradi. Bunday uslub ham o'zaro munosabatlarni barqarorlashtiruvchi omildir.

2024-yil imzolangan Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma ana shu jarayonning mantiqiy natijasidir. Bu hujjat faqat diplomatik protokol emas, balki O'zbekiston va Ozarbayjon munosabatlarining yangi siyosiy formulasi hisoblanadi. Endi munosabatlar "qardosh xalqlar" ritorikasi bilan emas, balki aniq geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlar tizimi bilan mustahkamlanmoqda.

Kelgusi yillarda mazkur ittifoqchilikning muvaffaqiyati bir necha omilga bog'liq bo'ladi. Birinchidan, transport yo'laklari real iqtisodiy samara berishi muhim. Ikkinchidan, sanoat kooperatsiyasi chuqurlashtirishi kerak. Uchinchidan, turkiy integratsiya madaniy platforma darajasida qolib ketmasdan, amaliy iqtisodiy mexanizmga aylinishi talab etiladi.

Asosiy, O'zbekiston va Ozarbayjon munosabatlari hozir mintaqada eng samarali va tez rivojlanayotgan hamkorlik modelidir. Ayni jihatdan turkiy integratsiya madaniy platforma darajasida qolib ketmasdan, amaliy iqtisodiy mexanizmga aylinishi talab etiladi.

Asosiy, O'zbekiston va Ozarbayjon munosabatlari hozir mintaqada eng samarali va tez rivojlanayotgan hamkorlik modelidir. Ayni jihatdan turkiy integratsiya madaniy platforma darajasida qolib ketmasdan, amaliy iqtisodiy mexanizmga aylinishi talab etiladi.

Asosiy, O'zbekiston va Ozarbayjon munosabatlari hozir mintaqada eng samarali va tez rivojlanayotgan hamkorlik modelidir. Ayni jihatdan turkiy integratsiya madaniy platforma darajasida qolib ketmasdan, amaliy iqtisodiy mexanizmga aylinishi talab etiladi.

Asosiy, O'zbekiston va Ozarbayjon munosabatlari hozir mintaqada eng samarali va tez rivojlanayotgan hamkorlik modelidir. Ayni jihatdan turkiy integratsiya madaniy platforma darajasida qolib ketmasdan, amaliy iqtisodiy mexanizmga aylinishi talab etiladi.

Asosiy, O'zbekiston va Ozarbayjon munosabatlari hozir mintaqada eng samarali va tez rivojlanayotgan hamkorlik modelidir. Ayni jihatdan turkiy integratsiya madaniy platforma darajasida qolib ketmasdan, amaliy iqtisodiy mexanizmga aylinishi talab etiladi.

Asosiy, O'zbekiston va Ozarbayjon munosabatlari hozir mintaqada eng samarali va tez rivojlanayotgan hamkorlik modelidir. Ayni jihatdan turkiy integratsiya madaniy platforma darajasida qolib ketmasdan, amaliy iqtisodiy mexanizmga aylinishi talab etiladi.

Asosiy, O'zbekiston va Ozarbayjon munosabatlari hozir mintaqada eng samarali va tez rivojlanayotgan hamkorlik modelidir. Ayni jihatdan turkiy integratsiya madaniy platforma darajasida qolib ketmasdan, amaliy iqtisodiy mexanizmga aylinishi talab etiladi.

Asosiy, O'zbekiston va Ozarbayjon munosabatlari hozir mintaqada eng samarali va tez rivojlanayotgan hamkorlik modelidir. Ayni jihatdan turkiy integratsiya madaniy platforma darajasida qolib ketmasdan, amaliy iqtisodiy mexanizmga aylinishi talab etiladi.

Asosiy, O'zbekiston va Ozarbayjon munosabatlari hozir mintaqada eng samarali va tez rivojlanayotgan hamkorlik modelidir. Ayni jihatdan turkiy integratsiya madaniy platforma darajasida qolib ketmasdan, amaliy iqtisodiy mexanizmga aylinishi talab etiladi.

Asosiy, O'zbekiston va Ozarbayjon munosabatlari hozir mintaqada eng samarali va tez rivojlanayotgan hamkorlik modelidir. Ayni jihatdan turkiy integratsiya madaniy platforma darajasida qolib ketmasdan, amaliy iqtisodiy mexanizmga aylinishi talab etiladi.

Asosiy, O'zbekiston va Ozarbayjon munosabatlari hozir mintaqada eng samarali va tez rivojlanayotgan hamkorlik modelidir. Ayni jihatdan turkiy integratsiya madaniy platforma darajasida qolib ketmasdan, amaliy iqtisodiy mexanizmga aylinishi talab etiladi.

Asosiy, O'zbekiston va Ozarbayjon munosabatlari hozir mintaqada eng samarali va tez rivojlanayotgan hamkorlik modelidir. Ayni jihatdan turkiy integratsiya madaniy platforma darajasida qolib ketmasdan, amaliy iqtisodiy mexanizmga aylinishi talab etiladi.

Xalqaro forum

KORRUPSIYADAN XOLI MIGRATSIA

Poytaxtimizda "Mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarini ijtimoiy-huquqiy himoya qilish" mavzuidagi birinchi Toshkent xalqaro migratsiya forumi o'z ishini boshladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Migratsiya agentligi hamda Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM) hamkorligida o'tkazilayotgan mazkur tadbirida xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiyani rivojlantirish masalalari muhokama qilinmoqda.



Forum avvalida migratsiya sohasida O'zbekistonda olib borilayotgan ishlarga bag'ishlangan videorolik namoyishi etildi. U bilan yaqindan tanishgan Amerika, Yevropa, Osiyo va Markaziy Osiyodagi 40 dan ortiq davlatlardan kelgan yuzlab xalqaro ekspertlar, tahlilchilar, olimlar mutaxassislar mamlakatimizda inson qadriini ulug'lash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani migratsiya masalasida ham yaqqol namoyon bo'layotganini alohida e'tirof etildi.

Tahlillarimizga ko'ra, dunyo bo'yicha migratsiya bilan bog'liq muammolar ko'paygan bo'lsa-da, keyingi yillarda bu yo'nalishda O'zbekistonda tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Mazkur tajriba, menimcha ko'pchilik davlatlar uchun asqatadi. Shu bois ushbu nufuzli forum Toshkentda o'tyapti, - deydi Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilotning Yevropa va Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy direktori Artur Erken.

Xalqaro migratsiya tashkilotining hisobotiga qaraganda, bugungi kunda davlatlari qit'alar oshib yurgan 304 million kishining 168 million nafari mehnat migrantidir. Ular jahon mehnat bozori va iqtisodiy o'sishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Chunki migrantlarning yillik pul o'tkazmalari 905 milliard AQSH dollaridan oshgan. Dunyodagi notinchlik, ekologik muammolar, oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq tahdidlar ta'sirida migratsiya jarayonlari ham kuchayib bormoqda. Shu jihatdan Toshkent xalqaro migratsiya forumining ahamiyati beqiyos.

Xalqaro ekspertlarning ta'kidlashicha, bugun aholisi yiliga qariyb 1 mln. kishiga ko'payib borayotgan O'zbekiston BMT tomonidan Migratsiya bo'yicha global bitim (GCM) maqsadlariga muvofiq islohotlarni faol ilgari surayotgan va ilg'or tajribalarni namoyish qilayotgan mamlakat sifatida e'tirof etilmogda.

Forum doirasida BMT, hukumatlar, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati vakillari tomonidan qonuniy migratsiya yo'llarini kengaytirish, tartibli tashkil qilish tamoyillarini ilgari surish, migrantlar huquq va manfaatlarini himoyasini ta'minlash, shuningdek, mazkur yo'nalishlarda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilinadi. Shu bilan birga, iqlim o'zgarishining aholi mobililigiga ta'siri kabi yangi global chaqiriqlarga ham alohida e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n beshinchi yalpi majlisi to'g'risida AXBOROT

O'simliklar karantini va himoyasi agentligining vakolatlari kengaytirilmoqda. Jumladan, fitosanitariyaga oid xavfli tahlil qilish, fitosanitariya nazorati ostida xavfli boshqarishga asoslangan tahlil olishning avtomatlashtirilgan mexanizmi tartib-taomilni tasdiqlash, karantin ostidagi materiallarni fitosanitar zararsizlantirish qoidalarini va usullarini, o'simliklar karantini sohasidagi laboratoriya tekshiruvlarining uslublarini ishlab chiqish va tasdiqlash, fitosanitar zararsizlantirish yuzasidan hujjatlarini litsenziyalash bo'yicha talablarni va tartibni ishlab chiqish kabi vakolatlari belgilanmoqda.

Shu bilan birga, "Davlat boji to'g'risida"gi hamda "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi qonunlarga yuridik shaxslarga fitosanitar zararsizlantirish bo'yicha faoliyat uchun cheklangan muddatga litsenziya berilishi hamda ushbu faoliyat uchun davlat boji belgilanishi, litsenziyaning nomi va uning kichik turlari aniqlashtirilishi hamda mazkur faoliyatni amalga oshirish chog'ida sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun jarmalar miqdori belgilanishiga oid normalar kiritilmoqda.

Senatorlar tomonidan qonunning qabul qilinishi o'simliklar karantini va himoyasi sohasidagi milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, fitosanitar zararsizlantirish bo'yicha faoliyatni yanada takomillashtirish hamda mahsulotlarni xalqaro savdoda to'liqsiz aylanishini ta'minlashga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Senatorlar qonunni ma'qulladi. Shundan so'ng "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga bola huquqlarining kafolatlarini yanada kuchaytirishga hamda tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni himoya qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda inson qadriini ulug'lashga, ayniqsa, xotin-qizlar va bolalarning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan tizimli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Mazkur qonun ana shu islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib, unda "bolaning eng ustun manfaatlari" tushunchasining huquqiy maqomi belgilanmoqda va u bolaga taalluqli har qanday masalani hal etishda ustuvor mezon sifatida qayd etilmoqda.

Oila kodeksiga kiritilayotgan tegishli o'zgartirishlar bilan oilada bola manfaatiga oid har qanday masala ko'rilayotganda bola o'z fikrini erkin ifoda etishi huquqiga ega ekanligi belgilanmoqda.

Shu bilan birga, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat organlarining vakolatlari ham kengaytirilmoqda.

Jumladan, ijtimoiy himoya milliy agentligiga tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ko'zlab, sudlarga davlat boji to'lmasdan ariza, shikoyat va da'volar taqdim etish, sud majlislarida o'zining vakolatli vakili orqali ishtirok etish huquqi berilmoqda.

Bundan tashqari, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarni maxsus markazlarga joylashtirish bilan bog'liq ijtimoiy kafolatlar aniqlashtirilib, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining maxsus markazga joylashtirilganiga bir oydan ortiq bo'lmagan davri unga vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik varaqasini berish uchun asos bo'lishi nazarda tutilmoqda.

Senatorlar ta'kidlaganidek, mazkur qonun bolalar va xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilishda yangi bosqichni boshlab berib, jamiyatda insonparvarlik va ijtimoiy adolat tamoyillarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida senatorlar qonunni ma'qulladi. Oliy Majlis Senatining yalpi majlisida "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy

javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun ham muhokama qilindi.

Ushbu qonun jamiyatda adolat va qonuniyligni mustahkamlash, fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirish hamda sud tizimi shaffofligini ta'minlash yo'lidagi muhim qadamdir.

Qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga bir qator prinsipial o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Xususan, avtomobil bozorida qiribgarliklarning oldini olish maqsadida Kodeks yangi 178²-modda bilan to'ldirilmoqda. Unga ko'ra avtotransport vositasining bosib o'tgan masofasini ko'rsatuvchi odometr uskunasi ko'rsatkichlari o'zgartirilganligi yoki almashtirilganligi haqida xaridorni xabardor etmaganlik uchun alohida ma'muriy javobgarlik belgilanmoqda.

Bu norma iste'molchilarning tovar haqida haqqoniy va to'liq ma'lumot olish huquqini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ikkilamchi avtomobil bozorida nohalol amaliyotlarga chek qo'yadi.

Qonunning yana bir muhim yo'nalishi - voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish. Endilikda voyaga yetmagan shaxslar ishtirokidagi ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini ko'rish jarayonida pedagog yoki psixologning ishtirok etishi majburiy etib belgilanmoqda.

Bu voyaga yetmaganlarning ruhiy holatini inobatga olish, ularga nisbatan bosim o'tkazilishining oldini olish va xalqaro standartlarga mos ravishda bola manfaatlarini himoya qilish kafolatini yaratadi.

Shuningdek, qonun bilan ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini yuritishda "rad qilish" va "o'zini o'zi rad etish" instituti ilk bor tizimlashtirilmoqda. Bu esa sudga yoki boshqa vakolatli shaxsning ishga bo'lgan manfaatdorligini bartaraf etish va qarorlarning xolisligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Transport vositasini boshqarish yoki ov qilish huquqidan mahrum qilish muddatini qisqartirish tartibi ham takomillashtirilmoqda. Mazkur masala endilikda faqat sud tomonidan aniqlanish shartlarida asosida ko'rib chiqiladi. Agar shaxs muqaddam ushbu imtiyozdan foydalangan bo'lsa yoki jazo muddati davomida takroran huquqbuzarlik sodir etsa, unga nisbatan bunday yengillik qo'llanilmaydi.

Senatorlar tomonidan ta'kidlanganidek, qonunning qabul qilinishi ma'muriy javobgarlik tizimini insonparvarlik va adolat prinsiplari asosida isloh qilishga xizmat qiladi.

Senatorlar qonunni ma'qulladi. Senatning 15-yalpi majlisida "Madaniy meros sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, so'nggi yillarda madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirilib, vakolatli organlarning funksiyalari qayta ko'rib chiqildi.

Qonun ana shu islohotlarni huquqiy jihatdan mustahkamlash, sohada vakolatlarini aniqlash hamda qonun hujjatlarini o'zaro muvofiqlashtirishga qaratilgan.

Qonunga muvofiq madaniy meros sohasida davlat boshqaruvi organlarining vakolatlari aniqlanib, moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish bo'yicha vakolatli Madaniy meros agentligiga, nomoddiy madaniy meros obyektlari bilan bog'liq vakolatlar esa Madaniyat vazirligiga tegishli ekanligi nazarda tutilmoqda.

Xususan, Madaniy meros agentligiga moddiy madaniy meros obyektlarini hisobga olish, davlat kadastrini yuritish, tarixiy-madaniy ekspertiza o'tkazish, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida davlat nazoratini amalga oshirish vazifalari yuklatilmoqda.

Qonun bilan madaniy boyliklarning muomalasi, jumladan, ularni kimoshid savdolari orqali realizatsiya qilish tartibi takomillashtirilib, ushbu jarayonlarni vakolatli

organ bilan kelishgan holda amalga oshirish mexanizmi joriy etilmoqda.

Bundan tashqari, arxeologiya yodgorliklarini tadqiq etishni faqat tegishli ruxsatnoma asosida amalga oshirish, madaniy meros obyektlarining holatini muntazam nazorat qilish hamda ularni har besh yilda ko'rikdan o'tkazish tartibi belgilanmoqda.

Senatorlarning ta'kidlashicha, qonun madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirishga, vakolatlar taqsimotida aniqlikni ta'minlashga hamda sohada yagona va samarali boshqaruvi yo'lga qo'yishga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida senatorlar qonunni ma'qulladi.

Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga iqtisodiy va ma'muriy sudlarga murojaat qilishda fuqarolar va tadbirkorlar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga hamda odil sudlovga erishish darajasini oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Ta'kidlab o'tilganidek, mazkur qonun bilan Jinoyat-protsessual, Iqtisodiy protsessual, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi hamda Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodekslarga muhim o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Eksterritorial sudlov tartibining joriy etilishi asosiy yangiliklardan biri hisoblanadi. Endilikda fuqarolar va tadbirkorlar o'zlari istagan tegishli sudga murojaat qilishi uchun imkoniyat yaratiladi. Ma'muriy sudlarga "dastlabki eshituv" instituti kiritilmoqda, bu esa ishlarni sudda ko'rish sifatini oshiradi.

Qonunda davlat organlarining mas'uliyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, davlat organi mansabdor shaxsining sud majlisida ishtirok etishi majburiy etib belgilanmoqda. Bundan tashqari, "ishonchning huquqiy himoyasi" prinsipi mustahkamlanmoqda, ya'ni davlat organining xatosi uchun javobgar tadbirkor emas, balki o'sha organ bo'lishini anglatadi.

Iqtisodiy sudlar tizimi ham maqbullashtirilib, tuman (shahar) iqtisodiy sudlari o'rni tumanlararo iqtisodiy sudlar tashkil etilmoqda.

Senatorlarning fikricha, qonunning qabul qilinishi investitsiya muhitini yaxshilashga, korruptsiyaviy omillarni kamaytirishga va inson qadriini ulug'lashga xizmat qiladi.

Senatorlar qonunni ma'qulladi.

Oliy Majlis Senatining 15-yalpi majlisida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga gijohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning analoglarining va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning qonunga xilof muomalasi uchun javobgarlikni takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun ham ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, Yangi O'zbekistonda aholi salomatligini muhofaza qilish va millat genofondini asrash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida sintetik narkotiklarning yangi turlari va "narkomaniya" xavfi ortib borayotgani mazkur sohadagi qonunchilikni qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi.

Qonun bilan Jinoyat, Jinoyat-protsessual va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga va boshqa qonunlarga o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Xususan, nafaqat gijohvandlik vositalari, balki kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasi uchun ham jinoyi javobgarlik kuchaytirilmoqda.

Senatorlar tomonidan qayd etilganidek, qonunda ilk bor "g'ayriqonuniy narkolaboratoriya" tashkil etganlik va uning faoliyatini ta'minlaganlik uchun alohida javobgarlik belgilanmoqda.

Shuningdek, gijohvandlik vositalarini Internet tarmog'ini orqali tarqatish va targ'ib qilish og'irlashtiruvchi holat sifatida qonunga kiritilmoqda.

Yoshlarni ushbu illatdan himoya qilish maqsadida ta'lim muassasalari, oromgohlar va yotoqxonalar tashabbusi bilan sodir etilgan narkojinoyatlar uchun jazo choralarini yanada kuchaytirilmoqda.

O'ta og'ir turdagi narkojinoyatlar sodir etgan shaxslarga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish tartibi qo'llanilmasligi belgilanmoqda.

Senatorlar fikricha, ushbu qonun huquqni muhofaza qiluvchi organlarining ijtimoiylikka qarshi kurashishi uchun mustahkam huquqiy asos yaratishga hamda sohaga oid faoliyat samaradorligini oshirishga, "narkotiklardan xoli muhit" yaratishga, ayniqsa, yosh avlodni gijohvandlik balosidan asrashga xizmat



qiladi. Muhokama yakunida senatorlar qonunni ma'qulladi.

Shuningdek, Senatning yalpi majlisida senatorlar "Raqamli markirovkalash tizimining samaradorligi oshirishni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunni muhokama qilindi.

So'nggi yillarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanib, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, sog'lom raqobat muhitini yaratish hamda asossiz tekshiruvlarning oldini olishga qaratilgan muayyan ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, aholini sifati iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlash hamda mahsulotlar noqonuniy ravishda ishlab chiqarilishi va muomalaga kiritilishining oldini olish uchun qonunchilikda belgilangan ayrim turdagi mahsulotlarni identifikatsiya vositalari orqali majburiy raqamli markirovkalash va ushbu mahsulotlarning aylanmasini kuzatib borish tizimini yanada kuchaytirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Senatorlar o'z chiqishlarida tovarlarni markirovkalash iste'molchilarni sifatsiz, soxta mahsulotlarni sotib olishdan himoyalashga mo'ljallanganligini va markirovkalash mavjudligi ishlab chiqaruvchini qonun normalari va sifat standartlariga qat'iy rioya etishga undashini bildiradi.

Qonun bilan Soliq kodeksiga tovarlarni (mahsulotlarni) majburiy markirovkalash bilan bog'liq huquqbuzarlik to'g'risida ikki marta rasmiy ogohlantirish berilganidan keyin masofaviy soliq tekshiruvini o'tkazishni nazarda tutuvchi qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Shuningdek, qonunda masofaviy soliq tekshiruvini o'tkazish muddati 5 kun bo'lishi hamda dalolatnoma elektron hujjat ko'rinishida rasmiylashtirilishi belgilanmoqda.

Senatorlar qayd etganidek, qonun qabul qilinishi xufiyona aylanma va yashirin iqtisodiyotning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini qisqartirish, aholiga sifatsiz yoki qalbak mahsulotlarni (spiriti ichimlik, tamaki mahsuloti, dori vositalari, salqin ichimlik va boshqalar) realizatsiya qilish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Senatorlar qonunni ma'qulladi.

Shundan so'ng "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, Yangi O'zbekistonda xalq hokimiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarish

hamda davlat boshqaruvida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining rolini oshirish islohotlarning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. So'nggi yillarda mahalliy Kengashlarning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholini tashvishga solayotgan muammolarni hal etish bo'yicha vakolatlari tobora kengayib bormoqda.

Mazkur qonun bilan mahalliy vakillik organlari faoliyatida boshqaruvi tizimi tashkil etish va ijro hokimiyati ustidan parlament nazoratining hududiy shakllarini takomillashtirishga qaratilgan qator o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Xususan, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarida Kengash raisi o'rinbosari

huquqni e'tirof etish bilan bog'liq ayrim mexanizmlarni soddalashtirish, fuqarolar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur qonun bilan "O'zbohimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi hamda "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida"gi qonunlarga huquqlarni e'tirof etish bilan bog'liq hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

So'zga chiqqanlar ta'kidlaganidek, fuqarolar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida soliq qarzdorligi tushunchasi aniqlashtirilib, yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqini e'tirof etish uchun bir martalik to'lovni belgilash tartibi va shartlari joriy etilmoqda.

Senatorlarning fikricha, ushbu qonun bilan kiritilayotgan normalar jismoniy va yuridik shaxslarning ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarini e'tirof etishga to'sinlik qiluvchi omillarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida senatorlar qonunni ma'qulladi.

Shuningdek, Senatning yalpi majlisida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, qonun inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, jinoyat-jiroiya tizimini yanada takomillashtirish hamda probatsiya institutining samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Qonunda bir qator muhim yangiliklar nazarda tutilmoqda. Xususan, Jinoyat kodeksiga kiritilayotgan o'zgarishlarga muvofiq jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar ustidan nazorat kuchaytirilib, ularning vakolatli organlarga vaqti-vaqti bilan kelib ro'yxatdan o'tib turish majburiyatini belgilanmoqda.

Shuningdek, sudga shartli ozod qilingan shaxs zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarini to'liq yoki qisman bekor qilish masalalari ko'rib chiqishda advokat yoki shaxsning o'zi imtinosoma kiritishi uchun imkoniyat yaratilmoqda.

Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilayotgan o'zgartirishlar orqali shartli ozod qilinishi bekor qilish tartibi aniqlashtirilib, ushbu masalalarni ko'rib chiqish mahkum istiqomat joyidagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sud sudyasi tomonidan hal qilinishi nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birga, Jinoyat-jiroiya kodeksi yangi bob bilan to'ldirilib, shartli ozod qilingan shaxslar ustidan nazoratning huquqiy mexanizmlari, ularning majburiyatlari va nazoratni tugatish tartibi belgilanmoqda.

"Jinoyat ishini yuritish chog'ida qamoqda saqlash to'g'risida"gi Qonunga tergov hibsonalarida ushlab turilgan shaxslar dam olish va ishlamaydigan bayram kunlari kamida ikki soat sayr qilishi hamda qo'shimcha tarzda kiyim-bosh hamda poyabzal olishi belgilanmoqda.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarini va eng zarur narsalarni sotib olish uchun ularga belgilangan pul miqdorini mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining bir baravarigacha oshirishni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Senat a'zolari ta'kidlaganidek, mazkur qonun jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish, shaxslarni to'g'ri yo'lga qaytarish va inson huquqlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Senatorlar qonunni ma'qulladi. Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n beshinchi yalpi majlisining birinchi ish kuni yakunlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Axborot xizmati.

QONUNLAR JAMIYATDA INSONPARVARLIK VA IJTIMOY ADOLAT TAMOYILLARINI YANADA MUSTAHKAMLASHGA XIZMAT QILADI

Kecha poytaxtimizda yuqori palataning o'n beshinchi sessiyasi o'z ishini boshladi. Parlament vakillari jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy masalalariga oid qator qonun hujjatlarini ko'rib chiqdi. Dolzarb va hayotiy tahlillar o'rtaga tashlandi, qonun hujjatlarini yuzasidan bahs-munozaralar bo'lib o'tdi. Har bir huquqiy tashabbus xalqimiz hayotini qay darajada yaxshilay olishi, bugungi kun taraqqiyot mezonlariga javob berishi va eng asosiysi, inson manfaatlarini himoya qila olishi yuzasidan batafsil o'rganildi. Biz ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan senatorlarning fikrlari bilan qiziqdik.

Munosabat

Erkin GADOYEV, Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi:

Senatorlar tomonidan muhokama qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga elektron tijorat sohasini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonun bilan Soliq kodeksiga hamda "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonunga elektron tijorat sohasida to'lovlarni, transchegaraviy elektron tijoratni amalga oshirishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Shu bilan birga, hujjatda raqamli mahsulotlar eksporti va importning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash maqsad qilingan.



Sayyora ABDIKARIMOVA, Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi o'rinbosari:

Yalpi majlisda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkilotining Sanitariya va fitosanitariya choralarini qo'llash bo'yicha Bitimiga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi qo'shimcha va

o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Bu nima uchun muhim? Mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida o'simliklar karantini va himoyasi sohasidagi milliy qonunchilikni tashkilotning bitimlarida nazarda tutilgan qoidalar va me'yorga muvofiqlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Shuningdek, o'simliklar karantini sohasidagi mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining vakolatlari aniqlash va qayta ta'kidlash muhim o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Hujjat bilan O'simliklar karantini va himoyasi agentligining vakolatlari kengaytiriladi. Jumladan, fitosanitariyaga oid xavfli tahlil qilish, karantin ostidagi materiallarni fitosanitar zararsizlantirish qoidalarini va usullarini, o'simliklar karantini sohasidagi laboratoriya tekshiruvlarining uslublarini ishlab chiqish va tasdiqlash kabi vakolatlar belgilanmoqda.

Abdulhakim ESHMURODOV, Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari qo'mitasi raisi:

"O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun



hujjatlariga iqtisodiy va ma'muriy sudlarga murojaat qilishda fuqarolar va tadbirkorlar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga hamda odil sudlovga erishish darajasini oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan Jinoyat-protsessual, Iqtisodiy protsessual, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi hamda Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodekslarga muhim o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Bundan eksterritorial sudlov tartibining joriy etilishi asosiy yangiliklardan biri hisoblanadi. Endilikda fuqarolar va tadbirkorlar o'zlari istagan tegishli sudga murojaat qilishi uchun imkoniyat yaratiladi. Ma'muriy sudlarda "dastlabki eshituv" instituti kiritilmoqda, bu esa ishlarni sudda ko'rish sifatini oshiradi.

Qonunda davlat organlarining mas'uliyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, davlat organi mansabdor shaxsining sud majlisida qatnashishi majburiy etib belgilanmoqda. Bundan tashqari, "ishonchning huquqiy himoyasi" prinsipi mustahkamlanmoqda. Bu davlat organining xatosi



uchun javobgar tadbirkor emas, balki o'sha organ bo'lishini anglatadi.

Qutbiddin BURHONOV, Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi:

Yalpi majlisda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi. Unga ko'ra, Jinoyat kodeksiga o'zgartirishlar kiritilib, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar ustidan nazorat kuchaytiriladi. Ularning vaqti-vaqti bilan vakolatli organlarga kelib ro'yxatdan o'tib turish majburiyatini belgilanmoqda. Shu bilan birga, Jinoyat-jiroiya kodeksi yangi bob bilan to'ldirilib, shartli ozod qilingan shaxslar ustidan nazoratning huquqiy mexanizmlari, majburiyatlari va nazoratni tugatish tartibi qayd etilyapti.

Tergov hibson

Fraksiyalar hayoti

KUN TARTIBIDAGI DOLZARB MASALALAR MUHOKAMASI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim voqe'larga e'tibor qaratildi, shuningdek, quyidagi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan hujjat

Tadbirkorlar va ishlabarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha davlat boshqaruvinu takomillashtirish hamda chorvachilik sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda ilgari surilgan tashabbuslar alohida e'tirof etildi.

Deputatlar "daladan dasturxonachaga" tamoyili asosida yagona tizim yaratilib, Oziq-ovqat xavfsizligi qo'mitasi tashkil etilayotganini qo'llab-quvvatladilar. Ushbu tashabbus sanitariya, veterinariya va karantin xizmatlarining birlashtirilishi, eksport-import jarayonlarini yengillashtirib, mahsulot sifati va xavfsizligi ustidan nazoratni yanada kuchaytirishi qayd etildi.

Deputatlar "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasini obdan muhokama qildi.

Ushbu hujjat iste'molchilarning qonuniy



manfaatlari yanada ishonchli himoya qilish, ayniqsa, nuqsonli tovarlarni almashtirish jarayonidagi huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etishga qaratilgan.

Qonun loyihasi bilan "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasi tegishli normalar bilan to'ldirilmoqda. Unga ko'ra, iste'molchi tovarning ishlab chiqarilishi, tuzilishi yoki tarkibiga oid kamchiliklarni aniqlagan taqdirda, sotuvchi yoki ishlab chiqaruvchi aynan shunday markali tovar mavjud bo'lsa, uni darhol almashtirib berishi shart bo'ladi. Amaldagi tartibga ko'ra, 7 kun ichida almashtirilishi belgilangan.

Loyihada qo'shimcha tekshirish o'tkazish asoslari ham aniq belgilab qo'yiladi.

Mahsulot sifatini qo'shimcha tekshirish bilan bog'liq xarajatlar esa sotuvchi yoki ishlab chiqaruvchi tomonidan qoplanadi. Biroq tekshirish natijasida tovarning nuqson mavjud emasligi yoki nuqson iste'molchining qoidalarini buzishi yoki uning uchunchi shaxs harakati oqibatida kelib chiqqanligi aniqlansa, ushbu xarajatlarni iste'molchi tomonidan qoplashi belgilanmoqda.

– Mazkur qonun loyihasi fraksiyamiz yig'ilishida qizg'in muhokama qilindi. Undagi ayrim normalar bo'yicha aniqlashtiruvchi savollar, qator taklif va tavsiyalar berildi, – deydi fraksiya a'zosi Emma Aslonova. – Mazkur hujjat iste'molchilar huquqlarini samarali himoyalashga hamda bozor ishtirokchilari uchun yanada barqaror va ishonchli huquqiy muhit

yaratishga xizmat qiladi. Hujjatning dolzarbligi va zaruratini e'tiborga olib, uni qo'llab-quvvatladik.

Nuqsonli tovarlarni almashtirishning asossiz cho'zilishi oldi olinadi

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida iste'molchilarning huquqlarini himoyalashga qaratilgan qonun loyihasi muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda raqobatni rivojlantirish orqali iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda amaldagi qonunchilik hujjatlarida nuqsonli tovarni almashtirishda iste'molchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarida huquqiy bo'shliqlarning mavjudligi sababli ularni qayta ko'rib chiqish talab etilmoqda.

Jumladan, "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda nuqsonli aniqlangan tovarni almashtirib berish uchun uning sifatini qo'shimcha ravishda tekshirish asoslari va tartib-taomillari ko'rsatilmagan. Bu, o'z navbatida, sotuvchi tomonidan tovarni almashtirish muddati asossiz ravishda cho'zilishiga hamda iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishda nizoli holatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Endi mazkur qonun loyihasi bilan sotuvchi, ishlab chiqaruvchiga nuqsonli bor tovar sifatini qo'shimcha ravishda tekshirish huquqi berilmoqda. Qo'shimcha tekshiruv tovarning saqlash yoki foydalanishning belgilangan qoidalarini buzganligi sababli yoxud uning shaxslarning harakatlari tufayli mavjud kelganligini tovarning tashqi ko'rinishiga qarab aniqlash imkoni bo'lmaganda o'tkaziladi. Bunda tovarning sifatini tekshirish huquq tomonidan belgilangan talablarga muvofiq amalga oshiriladi. Tekshiruv xarajati esa aybdor tomonidan qoplanishi belgilanayotadi.

Fraksiya a'zosi Zuhra Mirg'oziyeva qonun loyihasiga munosabat bildirib, ushbu o'zgarishlar bilan aholining iste'molchi sifatidagi huquqi yanada mustahkamlanayotgani, jumladan, nuqsonli tovarlarni almashtirishning asossiz cho'zilishi oldi olinishini ta'kidladi.

Yig'ilishda qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Nizosiz ishlarni hal qilish osonlashadi

"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab Prezidentimizning Turkiston shahrida bo'lib o'tgan Turkiya davlatlar tashkilotining norasmiy sammitida ilgari surgan muhim tashabbuslari haqida so'z yuritildi.

Deputatlar mazkur tashabbuslar nafaqat bugungi davr talabiga javob berishini, balki butun turkiy dunyo uchun uzoq muddatli strategik yo'l xaritasini belgilab berishi bilan alohida ahamiyatga ega ekanini qayd etdi.

– Davlatimiz rahbarining O'zbekistondagi

Islom sivilizatsiyasi markazi negizida TURKSOY va Turkiya akademiyasi bilan hamkorlikda tarixiy-madaniy manbalarni yagona "katta ma'lumotlar" platformasiga jamlash tashabbusi katta ilmiy-ma'rifiy ahamiyatga ega, – deydi fraksiya a'zosi Gulnora Abduravohidova. – Bu nafaqat tarixni saqlash, balki uni zamonaviy raqamli vositalar orqali kelajak avlodlarga yetkazish, turkiy xalqlarning mushtarak xotirasi va ma'naviy birligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Fraksiya a'zolari tomonidan ko'rib chiqilgan navbatdagi masala – nizosiz ishlarni hal etish tartib-



taomillarini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi bo'ldi.

Ushbu qonun loyihasi bilan Fuqarolik protsessual va Iqtisodiy protsessual kodekslaridagi sud buyrug'i tartibida ko'riladigan ayrim nizosiz talablarga oid ishlarning doirasi qayta ko'rib chiqilmoqda. Hujjat, avvalo, nizosiz ishlarni ko'rishni osonlashtirishga qaratilgan. Jumladan, endi ijara to'lovlarini, ko'p kvartirali uylardagi joylarning mulkdorlaridan majburiy badallar va to'lovlar, kommunal va aloqa xizmatlari bo'yicha qarzdorlikni undirish bilan bog'liq talabning miqdori bazaviy hisoblash miqdorining ming baravaridan ko'p bo'lgan taqdirda sud tomonidan buyruq tartibida ko'rib chiqiladi. Mazkur miqdordan kam bo'lgan nizosiz talablarga doir ishlar esa notariuslar tomonidan ko'rib chiqiladi.

Qonun loyihasi bilan "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunda ijro xatlarini yozib berganlik uchun undiriladigan summaning miqdori notarius tomonidan bunday notarial harakatni amalga oshirganlik uchun sarflanadigan haqiqiy xarajatlarni miqdoriga muvofiqlashtirilmoqda.

Muhokamalar davomida fraksiya a'zosi Shuhrat Yoqubov va boshqalar qonun loyihasining ahamiyati haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirib, uni ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida fraksiya a'zolari tomonidan berilgan qator takliflar e'tiborga olingani va hujjat matnida aks etganini ta'kidladi.

Deputatlar ushbu hujjat sud tizimi samaradorligini oshirish, nizosiz talablarni hal etish tartib-taomillarini soddalashtirishga xizmat qilishini e'tiborga olib, uni qo'llab-quvvatladilar.

Aholining ehtiyojmand qatlami uchun qo'shimcha imkoniyatlar

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida qator qonun loyihalari, parlament nazorati hamda fraksiya faoliyatiga oid muhim masalalar atroflicha ko'rib chiqildi.

Yig'ilishda dastlab nizosiz ishlarni hal etish tartib-taomillarini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokama qilindi.

Deputatlarning fikricha, mazkur qonun loyihasi sud tizimi samaradorligini oshirish, nizosiz talablarni hal etish tartib-taomillarini soddalashtirish hamda

notarial xizmatlar qamrovi va sifatini yaxshilashga ko'mak beradi.

Kun tartibidan o'rin olgan navbatdagi masala – aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi bo'ldi.

Qonun loyihasi bilan nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini xalqaro standartlar asosida yanada mustahkamlash, ularning odil sudlovdan to'liq va teng foydalanishini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini manzilli va samarali tashkil etish nazarda tutilmoqda. Xususan, qonun loyihasida "Ijtimoiy reestr"ga kiritilgan aholilarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yagona mexanizmini joriy qilish taklif etilmoqda.

Bundan tashqari, Soliq kodeksiga nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlashni rag'batlantiruvchi qator imtiyozlar kiritilmoqda.

Yig'ilishda qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida undagi normalar deputatlar bergan takliflar asosida takomillashtirilgani qayd etildi.

Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi orqali ijtimoiy yordam va xizmatlarning manzilligi ta'minlanishi, aholining ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratilishi urg'ulandi.

Muhokamalardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Qo'shimcha tekshirish o'tkazishning mexanizmlari belgilanmoqda

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Muhokamalar davomida mamlakatimizda raqobatni rivojlantirish orqali iste'molchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, savdo va xizmat ko'rsatish sohasida ochiqlik hamda iste'molchilar huquqlarining kafolatini kuchaytirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani qayd etildi.

Qonun loyihasi bilan nuqsonlari aniqlangan tovarni almashtirib berish uchun tovar sifatini qo'shimcha ravishda tekshirish holatlari, asoslari va tartib-taomillarini aniq belgilash nazarda tutilmoqda. Xususan, mahsulotdagi nuqsonlar iste'molchi tomonidan foydalanish, saqlash qoidalarini buzish yoki uning uchun shaxslar harakatlari natijasida kelib chiqqan bo'lishi mumkinligini tashqi ko'rinishidan aniqlash imkoni bo'lmagan hollarda qo'shimcha tekshirish o'tkazishning huquqiy mexanizmlari belgilanmoqda.

Shuningdek, qonun loyihasi bilan iste'molchining nuqsonli tovar sifatini qo'shimcha ravishda tekshirishdagi ishtiroki bilan bog'liq kafolatlar ham mustahkamlanmoqda. Jumladan, iste'molchining shaxsan yoki o'z vakili orqali tekshirish jarayonida ishtirok etish huquqi belgilanmoqda.

– Qonun loyihasining qabul qilinishi iste'molchilarning nuqsonli tovarlarni almashtirishdagi huquq va qonuniy manfaatlarini yanada samarali himoyalashga xizmat qilib, mazkur normalar sotuvchi va iste'molchi o'rtasidagi nizoli holatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi, – deydi fraksiya a'zosi Navro'zbek Yusupov.

Muhokamalardan so'ng qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

"Xalq so'zi".

STRATEGIK SHERIKLIKNING YANGI BOSQICHI

O'zbekiston va Ozarbayjon munosabatlari tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Mamlakatlarimizni mushtarak idizlar, ma'naviy qadriyatlar, til, boy tarixiy va madaniy meros birlashtirib turadi.

Aks sado

So'nggi yillarda davlat rahbarlarining siyosiy irodasi bilan ikki tomonlama hamkorlik sifat jihatdan yuqori bosqichga ko'tarildi. O'zaro tashriflar O'zbekiston – Ozarbayjon munosabatlari barcha sohada mustahkamlashga kuchli turtki berdi.

Prezidentimizning Ozarbayjon Respublikasi Prezidentining taklifiga binoan ushbu mamlakatga tashrif, shubhasiz, ikki tomonlama strategik sheriklikni yangi sifat bosqichiga ko'tarib, do'stlik va ittifoqchilik munosabatlarida yangi davrni boshlab berdi.

Davlatimiz rahbarining BMTning Aholi punktlari bo'yicha dasturi shafeligida Boku shahrida o'tkazilayotgan Butunjahon urbanizatsiya forumining 13-sessiyasining Yetakchilar sammitidagi nutqi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining navbatdagi muhim bosqichini, ya'ni inson qadri, xavfsiz yashash muhiti va zamonaviy shaharsozlik tamoyillariga asoslangan urbanizatsiya siyosatini yaqqol namoyun etdi.

Nutqda aytilganidek, hududlarda aholi uchun teng yashash sharoitlarini yaratish kichik va o'rta shaharlarni uyg'un rivojlantirishni talab qilmoqda. Ushbu jarayonda davlatimiz rahbarining hamkor davlatlarni shaharlarni rivojlantirishda "mutanosib urbanizatsiya" tamoyilini keng joriy etishga chaqirig'i, avvalo, hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Prezidentimizning xalqaro "Aqli va xavfsiz shaharlar alyansi"ni tuzish taklifi ham juda dolzarb bo'lib, bu shaharlarni yanada qulay, xavfsiz va zamonaviy rivojlantirishga imkon beradi. Mazkur tuzilma shahar boshqaruvinu raqamli transformatsiya qilish sohasida texnologiyalar, standartlar va eng yaxshi tajribalar bilan almashish uchun platforma vazifasini bajaradi.

Yana bir muhim jihat – mahalla institutining urbanizatsiya jarayonlaridagi o'rni berilgan yuqori baho. Davlatimiz rahbari tomonidan Butunjahon urbanizatsiya forumining 15-sessiyasini Yangi Toshkent shahrida "Shaharlarning barqaror rivojlanishida mahalla institutining o'rni" mavzuida o'tkazish taklif qilindi. Milliy o'zini o'zi boshqarish tizimining xalqaro miqyosda e'tirof etilayotganini anglatadi. Chunki mahalla – bu nafaqat an'anaviy ijtimoiy institut, balki jamiyat barqarorligi, ijtimoiy hamjihatlik va fuqarolik mas'uliyatining tayanch ustuni.

Forum kun tartibidan shaharlarni barqaror rivojlantirish, aholini zamonaviy va arzon uy-joy bilan ta'minlash, shahar muhiti sifatini oshirish, iqlim barqarorligini mustahkamlash, ijtimoiy va transport infratuzilmasi hamda uy-joyni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish kabi dolzarb masalalar o'rin olgani uning ahamiyatini yanada oshirdi.

Urbanizatsiya jarayoni global barqarorlik va xavfsizlikka to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi jiddiy omilga aylangan. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan takliflar kichik va o'rta shaharlar salohiyatini yuksaltirish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish hamda mahalla institutining ahamiyatini kuchaytirishga qaratilgan muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tashabbuslar nafaqat O'zbekiston, balki jahon hamjamiyati uchun ham dolzarb bo'lib, kelgusida barqaror va inson manfaatlariga xizmat qiladigan shaharlarni barpo etishda muhim o'rin tutadi. O'z navbatida, biz, deputatlar sammitida ilgari surilgan dolzarb tashabbuslarning hayotga samarali tatbiq etilishida faol bo'lishimiz lozim.

Ravshan FOZILOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

MUBORAK HAJ SAFARIGA BEPUL YO'LLANMA

Prezidentimiz ehtiromiga sazovor bo'lgan haj ziyoratchilari O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tomosha qildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda inson qadri va sha'nini ulug'lash borasidagi ezgu ishlar o'ziga xos an'anaga aylangan. Yaqinda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Vatanimiz taraqqiyoti yo'lida uzoq yillar turli sohalarda xizmat qilgan 100 nafar hamyurtimizga haj amallarini bajarib qaytishlari uchun bepul yo'llanmalar berildi.

Ehtirom

Kuni kecha Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardan mazkur yo'llanmaga munosib ko'rilgan vatandoshlarimiz haj ziyoratiga jo'nab ketish uchun Toshkent shahrida jamlanishdi. Ushbu yurtdoshlarimiz muqaddas haj ziyorati oldidan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurdi.

Mehmonlarga Prezidentimiz tashabbusi bilan bunyod etilgan ushbu markazning qurilish tarixi, maqsad va vazifalari haqida ma'lumot berildi.

To'qqiz yilga yaqin vaqt mobaynida qurib bitkazilgan ushbu darogh bugungi kunda islom sivilizatsiyasi tarixini aks ettiruvchi eng yirik markaz sifatida

xalqaro miqyosda e'tirof etilgan. Ayni paytga qadar bu yerni o'nlab davlat va hukumat rahbarlari, ellikka yaqin mamlakatlardan kelgan vazirlar, senatorlar, yirik olimlar, dunyoga mashhur ilm-fan, san'at va sport namoyandalari ziyorat qilishdi.

"Prezident hojilari" markazning islomdan oldingi davr, Birinchi va Ikkinchi Renessans, Yangi O'zbekiston ekspozitsiyalari, Qur'oni karim zali bilan yaqindan tanishdi. Ayniqsa, muqaddas Ka'ba yopinchi'gi – kisva namunalari, Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning turli hukmdorlarga yo'llagan maktublari nusxalari, turli davrlarda ko'chirilgan Qur'oni karim qo'lyozmalari, xususan, yettinchi asrda xalifa Usmon ibn Affon (r.a.) davrida ko'chirilgan qadimiy mus'haf mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

– Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlovi asosida 100 nafar yurtdoshimizning muqaddas haj safariga yuborilayotgani xalqimizga yuksak ehtirom va e'tiborning amaliy ifodasidir, – dedi tadbirda ishtirok etgan Prezident Administratsiyasi Diniy-ma'rifiy masalalar bo'yicha departamentining boshlig'i Muzaffar Komilov. – E'tiborlisi, ushbu safar ishtirokchilari orasida mahallalarda yillar davomida xalq xizmatida bo'lgan fidoyi insonlar, ta'lim, ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlash sohasida mehnat qilgan yurtdoshlarimiz, shuningdek, diniy-ma'rifiy sohada sidqidilgan mehnat qilib kelayotgan kamtar va zahmatkash insonlar bor. Yillar davomida haj safariga borishni niyat qilgan, ammo imkon topolmagan aksariyat insonlar bugun ana shu ezgu orzulari ro'yobining guvohiga aylangan. Shubhasiz, bu tashabbus yuksak ma'naviy ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatda sog'lom muhitni qurishga xizmat qiladi.

– Prezidentimiz tashabbusi bilan muqaddas haj ziyoratiga yo'l



olayotganimizdan benihoya baxtiyormiz, – deydi "Nuroni" jamg'armasi Buxoro shahar bo'limi huzuridagi "Buvijonlar" maktabi rahbari Ozoda Murodova. – Bugun esa muqaddas safar oldidan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini ziyorat qilish nasib etdi. Bu yerdagi muhtasham muhit, tarix va ma'naviyat uyg'unligi bizda beqiyos taassurot qoldirdi. Ayniqsa, Uchinchi Renessans g'oyalari va Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan

bunyodkorlik ishlari har birimizda behad faxru iftixor uyg'otdi. Prezidentimiz tashabbusi bilan bu kabi ulkan ma'rifiy va bunyodkorlik loyihalari amalga oshirilishi xalqimiz hamda kelajak avlod uchun beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shundan so'ng davlatimiz rahbarining maxsus yo'llanmalari bilan hajga o'tlangan hamyurtlarimiz muborak safarga kuzatildi.

"Xalq so'zi".

Fransiyada o'tkazilgan 17-xalqaro "ENTRE DEUX CANNES" kinofestivalida mamlakatimizdagi "Yoshlik" kinostudiyasi tomonidan suratga olingan

"Qadam. Quyosh bolasi Yusuf" qisqa metrajli filmi Gran-prini qo'lga kiritdi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 429. Buyurtma G-542. 23 207 nusxada bosildi. Hajmi – 2 tablo. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiy tashkilot tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyriyati kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhib S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonalar manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 02.20 Topshirildi – 02.20 1 2 3 4 5 6